

ISSN 2181-922X

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

## LANGUAGE & CULTURE

# O'ZBEKISTON

2022 Vol. 1

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

ISSN 2181-922X

# O‘ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

# UZBEKISTAN

LANGUAGE AND CULTURE

2022 Vol. 1

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Bosh muharrir:** Shuhrat Sirojiddinov

**Bosh muharrir o'rinbosarlari:** Zaynobiddin Abdirashidov

**Mas'ul kotib:** Ozoda Tojiboyeva

### **Tahrir kengashi**

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboyev, Samixon Ashirboyev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Baxtiyor Mengliyev, Uzoq Jo'raqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, G'aybulla Boboyorov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jo'raqo'ziyev.

### **Tahrir hay'ati**

Isa Habibbeyli (Ozarbayjon)	Maria Sabtelni (Kanada)
Frederik Bressand (Fransiya)	Timur Kocaoğlu (AQSH)
Ingeborg Baldauf (Germaniya)	Almaz Ülvi (Ozarbayjon)
Mark Toutant (Fransiya)	Tanju Seyhan (Turkiya)
Rochelle Almeida (AQSH)	Xisao Komatsu (Yaponiya)
Akrom Habibullayev (AQSH)	Emek Üşenmez (Turkiya)
Valeriy S. Xan (O'zbekiston)	Abdulvahap Kara (Turkiya)
Eunkyung Oh (Janubiy Koreya)	Alizoda Saidumar (Tojikiston)
Oqilxon Ibrohimov (O'zbekiston)	Dilorom Ashurova (O'zbekiston)
Shodmon Vohidov (Tojikiston)	Darya Jigulskaya (Rossiya)

“O'zbekiston: til va madaniyat” jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnal bir yilda to'rt marta chop etiladi.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

**Editor-in-Chief:** Shuhrat Sirojiddinov  
**Deputy Editors in Chief:** Zaynabiddin Abdirashidov  
**Executive secretary:** Ozoda Tajibaeva

### Editorial board

Ahmadali Asqarov, Abdulaziz Mansur, Akmal Saidov, Akmal Nur, Adham Ashirov, Nizomiddin Mahmudov, Hamidulla Dadaboev, Samixon Ashirboev, Bahodir Karimov, Aftondil Erkinov, Bakhtiyor Mengliev, Uzoq Juraqulov, Sulton Normamatov, Murtazo Sayidumarov, Gaybulla Babayarov, Nozliya Normurodova, Abdi Mamatov, Nodir Jurakuziev.

### Editorial Committee

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	Maria Subtelny (Canada)
Frederique Bressand (France)	Timur Kozhaoglu (USA)
Ingeborg Baldauf (Germany)	Almaz Ulvi (Azerbaijan)
Marc Toutant (France)	Tanju Seyhan (Turkey)
Rochelle Almeida (USA)	Hisao Komatsu (Japan)
Akram Habibullaev (USA)	Emek Üşenmez (Turkey)
Valeriy S. Khan (Uzbekistan)	Abdulahap Kara (Turkey)
Eunkyung Oh (South Korea)	Alizoda Saidumar (Tajikistan)
Oqilkhon Ibrohimov (Uzbekistan)	Dilorom Ashurova (Uzbekistan)
Shodmon Vohidov (Tajikistan)	Daria Zhigulskaya (Russia)

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The journal is published four times a year.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results.

The authors' ideas may differ from those of the editors'.

Alisher Navo'i Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

**Email:** uzlangcult@gmail.com  
**Website:** www.uzlc.navoiy-uni.uz

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Samixon Ashirboyev**

Alisher Navoiy nasriy asarlari matnida gaplarni chegaralashga doir.....6

#### **Baxtiyor Abdushukurov**

Alisher Navoiy asarlaridagi etnonimlar.....19

#### **Zulxumor Xolmanova**

Omonimlar – tafakkur omili.....30

#### **Sanjar Mavlyanov**

O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar.....45

#### **Elyor Xonnazarov**

O'zbek tilshunosligida zamoni ifodalovchi grammatik shakllar tasnifi...55

### Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

#### **Tanju Seyhan**

Ali Şir Nevâyî ve Kalem.....66

#### **Muhittin Gümüş**

Bâbürnâme'nin edebî tür açisindan özellikleri.....78

### Fan. Ta'lim. Metodika

#### **Dilnavoz Yusupova**

"Xamsa" dostonlarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalar va metodlardan foydalanish ("Farhod va Shirin" misolida).....89

### San'at

#### **Oqilxon Ibrohimov**

Nazm va navo xususida.....104

# CONTENT

## Linguistics

### **Samikhan Ashirboev**

Alisher Navoi's prose text is about limiting sentences.....6

### **Bakhtiyar Abdushukurov**

Ethnonyms in the works of Alisher Navoi.....19

### **Zulhumor Kholmanova**

Homonyms – a factor of wisdom.....30

### **Sanjar Mavlyanov**

Semantic relations in the system of diplomatic terms of the  
Uzbek language.....45

### **Elyor Khonnazarov**

Classification of Grammatical Tense in Uzbek Linguistics.....55

## Literature. Translation studies

### **Tanju Seyhan**

Ali Şir Nevâyî and Pen .....66

### **Muhittin Kumush**

Features of Baburname as a literature genre.....78

## Science. Education. Methodology

### **Dilnavoz Yusupova**

Modern technologies and use of methods (in the example  
of "Farhod and Shirin").....89

## Art

### **Oqilkhon Ibrohimov**

About poetry and melody.....104

## O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar

Sanjar Mavlyanov<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqolada o'zbek tilshunosligida erishilgan natijalarni yanada to'ldirish, takomillashtirish maqsadida o'zbek tili diplomatik terminlar tizimida guruhlararo va leksemalararo semantik munosabatlar yoritilgan. O'zbek tilining diplomatik terminlar sistemasi ham o'ziga xos tarkibiy tuzilishga va turli lisoniy qiymatli leksemalarga ega sistema hisoblanadi. Mazkur sistemaga mansub leksemalar va leksemalar guruhining leksik-semantik munosabatlarini aniqlash, o'zbek tili leksikasining sistemaviy xususiyatlarini ochishga yordam beradi. Maqolada inson ongida mavjud bo'lgan diplomatik tushunchalarni aks ettiruvchi leksik birliklarning paradigmatic qatorlarini belgilashga, inson ongida anglatgan mazmuniy mundarijasiga, ularning nutqiy voqelanishi hamda qo'llanishi, semantik munosabatlar antonimik, partonimik, sinonimik, graduonimik nuqtayi nazardan yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** *diplomatik termin, leksema, leksik-semantik munosabatlar, antonomiya, sinonimiya, partonomiya, antonomiya, graduonimiya.*

### Kirish

Leksik birliklarni o'zaro ichki munosabatlariga ko'ra paradigmalariga, turkumlarga, turlarga ajratish leksemalar sistemaviy tadqiqining asosi hisoblanadi. Lisoniy birliklar inson tug'ilib, voyaga yetishi jarayonida shakllanib, shaxs ongida mujassamlashib boradi. Ular kishilar ongida muayyan paradigmalar tarzida mavjud bo'ladi. Bunday paradigmalarni, ularning yashash qonuniyatlarini ochish, belgilab berish vazifalari haligacha to'liq ochilmagan bo'lib, kishi ongida yashovchi leksik birliklarning mohiyati, yuzaga kelish va amal qilish qonuniyatlarini jamiyatda mavjud yo'nalishlar, sohalar tushunchalari asosida ochib berish tadqiqotchilar oldida turgan vaziri-

<sup>1</sup>Mavlyanov Sanjar Djambulovich – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti.

**E-pochta:** sanjarmavlyanov18@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-4705-7165

**Iqtibos uchun:** Mavlyanov, S.Dj. 2022. "O'zbek tili diplomatik terminlari tizimida semantik munosabatlar". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 45-54.

falardan hisoblanadi. Tadqiqotimizning ushbu qismida inson ongida mavjud bo'lgan diplomatik tushunchalarni aks ettiruvchi leksik birliklarning paradigmatic qatorlarini belgilashga, inson ongida anglatgan mazmuniy mundarijasiga, ularning nutqiy voqelanishi hamda qo'llanishi, semantik munosabatlarini ochishga harakat qilamiz.

Lug'aviy sistema leksemalarning o'zaro o'xshashligi, farqli belgilari asosida birlashgan guruhleri hisoblanib, ular iyerarxik (pog'onali) tabiatli qurilishga ega bo'ladi. Lug'aviy sistemalar bir qator ichki sistemalardan tashkil topadi. Bu iyerarxiya lisonidan boshlanib alohida leksema, sememalarga qadar davom etadi. Bunda turli birliklar orasida ham, bir nechta yoki bitta paradigma a'zolari o'rtasida ham muayyan qat'iy lisoniy munosabatlar mavjud bo'ladi. O'zbek tilshunosligida muayyan guruhga birlashgan leksemalar va ularning o'zaro munosabatlari masalasi keng va atroflicha tadqiq qilingan [Рахматуллаев 2006, 35]. Xususan, o'zbek tilshunosligida markaziy leksemalar orasidagi ma'no munosabatlarini o'rganish darajalanish (graduonimiya), jins-tur (giponimik), butun-bo'lak (partonimik), vazifadoshlik (funksionallik) va pog'onalilik (iyerarxonimik) kabi ma'no munosabatlari farqlandi. Ushbu ajratishlar leksemalarning semantik munosabatlarini belgilanishiga keng yo'l ochdi.

O'zbek tilshunosligida erishilgan natijalarni yanada to'ldirish, takomillashtirish maqsadida ushbu tadqiqotimizda o'zbek tili diplomatik terminlar tizimida guruhlararo va leksemalararo semantik munosabatlarni yoritishga e'tibor qaratildi. Mazkur jihat leksik sathning sistemaviy tadqiqini mukammallashtirishga xizmat qiladi. O'zbek tilining diplomatik terminlar sistemasi ham o'ziga xos tarkibiy tuzilishga va turli lisoniy qiymatli leksemalarga ega sistema hisoblanadi. Mazkur sistemaga mansub leksemalar va leksemalar guruhining leksik-semantik munosabatlarini aniqlash, o'zbek tili leksikasining sistemaviy xususiyatlarini ochishga yordam beradi.

### **1. O'zbek tili diplomatiya terminlari tizimida graduonimiya.**

Leksik birliklar o'rtasidagi ko'plab yangi munosabatlarni sistem-struktur tilshunoslikdagi tadqiqotlar kashf etdi. Semantik munosabatlar mazmun-mundarijasini partonimik (butun-bo'laklik), funksionimik (vazifadoshlik), graduonimik (darajalanish), iyerarxonimik (pog'onalilik) munosabatlari bilan boyitdi. Xususan, graduonimik (darajalanish) munosabat atroflicha tadqiq etilgan. O'zbek tilshunosligida mazkur munosabat yuzasidan S.G'iyosov, E.Begmatov, H.Ne'matov, R.Rasulov, R.Safarova, M.Narziyeva, M.Fay-



zullayev, Sh.Orifjonova, O.Bozorov [Бегматов, Неъматов, Расулов 1989, 35-40] kabi olimlarimiz tadqiqot olib borishgan.

Tilshunos olim A.Sobirov: “Moddiy borliqdagi narsa va hodisalar uzluksiz xatti-harakatda bo’ladi. Ular tashqi va ichki kuchlar ta’sirida muttasil ravishda o’z shakl-shamoyilini o’zgartirib turadi. Natijada olam qonuniyatlari asosida bitta maydonda bir narsaning turli-tuman shakllari paydo bo’ladi. Aynan mana shu narsa avval real borliqda, so’ngra tilda narsalarning bir-biriga nisbatan gradual holatida turishini ta’minlaydi”, – deb darajalanish hodisasiga munosabat bildiradi va turlarini keltiradi:

1. Maydon uzvlari o’rtasidagi ichki darajalanish;
2. Leksik-semantik guruhlar yoki mazmuniy to’dalar o’rtasidagi darajalanish;
3. Moddiy borliqdagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi mikromaydonlar o’rtasidagi darajalanish” [Собиров 2004, 148].

Leksik tarkibdagi diplomatiya terminlari tizimi uzvlari o’rtasidagi munosabatlarning ba’zi ko’rinishlari graduonimik xarakter kasb etishiga quyidagi leksemalar paradigmasida ham guvoh bo’lish mumkin: *vakil, vakolatli diplomat, favqulodda elchi, muxtor elchi, elchi muovini, elchi*. Bunda leksemalar o’zaro “diplomatik” darajalarning oshib borishiga ko’ra shu tartibda joylashadi va *vakildan elchigacha* “diplomatik” darajasi muttasil ravishda o’sib borishi kuzatiladi.

Leksik-semantik guruhlar o’rtasidagi darajalanish esa diplomatiya terminlari tizimidagi asosiy guruhlar o’rtasida ham kuzatiladi:

- “diplomatik” faoliyat bilan bog’liq terminlar *guruhi*;
- “konsullik” arxisemasiga ega terminlar *guruhi*;
- “xalqaro” munosabatlar sifatiga ega terminlar *guruhi*.

Shuningdek, qatlamiga, tarixiyiligiga, uslubiy bo’yoqdorligiga, qo’llanish doirasiga nisbatan ham sistema leksemalari darajalanishi mumkin.

## **2. O’zbek tili diplomatiya terminlari tizimida sinonimiya.**

Sinonimiya (ma’nodoshlik) hodisasi semantik sistemada eng ko’p uchrovchi munosabat turlaridan biridir. O’zbek tilshunosligida sinonimiya leksemalararo ma’nodoshlik hodisasi sifatida atroflicha tadqiq qilingan lug’aviy paradigmalardan biri [Хожиев 1974, 308]. Biz ushbu hodisa yuzasidagi qarashlarimizni diplomatiya terminlari tizimi bilan bog’liq holda davom ettirishni joiz deb bildik. Sistemadagi diplomatik faoliyat guruhiga kiruvchi ittifoqchi, hamkor, sheriklik leksemalari ifoda planida har xillik kuzatilsa ham, mazmun planida

bitta umumiy denotat bilan bog'liqligi natijasida o'ziga xos leksik paradigmani yuzaga keltirmoqda.

Sistema tarkibidagi har bir sinonimik qator alohida, mustaqil mikroparadigma hisoblanadi. Shu sabab semantik jihatdan sinonimik qatordagi birliklar o'zaro uzviy bog'liq. Masalan, diplomat, elchi, vakil qatoridagi leksemalar atash semalari asosida bitta paradigma uyushishi ma'noviy munosabatni yuzaga keltirmoqda. Professor Mengliyev "sinonimiya hodisasi haqida gapirganda leksik (leksemik) emas, balki semantik (semamatik) sinonimiya deyish to'g'riroq bo'ladi" [Менглиев 2004, 48], deb ta'kidlaydi. Sinonim leksemalar sememalaridagi atash va vazifa semalari bir xil bo'lib, ifoda semalari bilan o'zaro farqlanadi. Masalan, diplomat, elchi, vakil sinonimik qatorini kuzataylik. Qatordagi leksemalarning leksikografik tavsifi quyidagicha:

**DIPLOMAT** I Ifr. diplomate < yun. Diploma — ikki buklangan varaq, hujjat. 1. Chet mamlakatlar bilan rasmiy aloqa qilish yoki muzokaralar olib borish uchun maxsus tayyorgarlik ko'rgan va shunday ishlar uchun o'z hukumati tomonidan vakil qilib tayin etilgan lavozimli kishi.

2 s.t. Ish, gap, muomalada usta, mohir kishi [ЎТИЛ 2007, 624].

**ELCHI** 1 dip. Bir suveren davlatning boshqa bir suveren davlatdagi diplomatik vakillarining eng katta martabasi, unvoni va shu unvonga ega bo'lgan shaxs. Favqulodda va muxtor elchi.

2 tar. Shoh tomonidan biror topshiriq bilan yuborilgan kishi. [ЎТИЛ 2007, 34].

**VAKIL** [a. j — ishonchli, vakolatli shaxs] 1 Biror kishi, muassasa, tashkilot va sh. k. nomidan ish ko'rishga vakolati bo'lgan, uning manfaatlarini ko'zlovchi va himoya qiluvchi shaxs.

2. Biror davlat yoki tashkilotning vakolati bilan o'zga ellarda uning nomidan ish ko'ruvchi, uning manfaatlarini himoya qiluvchi lavozimli kishi, elchi. Diplomatik vakil. Muxtor vakil.

3. Biror soha, ijtimoiy guruh, jamiyat va sh. k. ga mansub kishi; namoyanda [ЎТИЛ 2007, 436]

Qatordagi barcha leksemalarning atash semalari aynan, farqlovchi jihat esa ifoda semalaridir. *Diplomat* "fransuzcha", "rasmiy", *elchi* "o'z qatlam", "vakillikning eng yuqori martabasi", *vakil* "arabcha", "ishonchlilik" belgilariga ko'ra farqlilik kasb etadi.

Ko'p sememali leksemalar ma'nolari ham sinonimik munosabatda yuzaga chiqadi. Buni quyidagi diplomatiya terminlari ma'nodoshlik munosabatida ham ko'rish mumkin: hamkorlik, sheriklik, it-

tifoqchilik. Ushbu paradigmatic qatorning dastlabki ikkita leksemasi ko'p sememali bo'lib, ko'p sememali leksemalar har bir sememasi bilan alohida ma'nodoshlik qatoriga mansub bo'la oladi. Hamkorlik, sheriklik leksemalari o'zlarining o'zbek tilining izohli lug'atida tavsiflangan ikkinchi sememalari asosida sinonimik qator hosil qilyapti. Bundan tashqari, mazkur leksemalar sirasidagi *hamkorlik* ma'noviy tarkibidagi 1-sememasi vositasida hamkasaba leksemasi bilan ma'nodoshlik munosabatida bo'ladi. Bunda *hamkasaba* ham ko'p sememali leksema sifatida o'zining 1-sememasi bilan ishtirok etadi. Xuddi shuningdek, *shiriklik* leksemasi 1-sememasi orqali *o'rtoqlik* leksemalari bilan sinonimik munosabatda bo'la oladi.

Leksemalar ma'nodoshlik qatorida bir so'z dominant hisoblanib, boshqalari dominant leksema atrofida birlashadi va ma'nodoshlikni yuzaga keltiradi. "Sinonimik guruhdagi dominanta har jihatdan adabiy me'yor talabiga javob beradigan so'z hisoblanadi. Masalan, u emotsional bo'yoq va uslubga nisbatan befarq (neytral) bo'ladi, belgining me'yoriy darajasini ifodalaydi va h.k." [Хожиев 2010, 129]. Leksemaning dominantligi shu xususiyatga ko'ra belgilanadi. Dominanta leksema istalgan vaziyatda o'z ma'nodoshlarini almashtira oladi hamda ma'nodoshlik qatori mansub bo'lgan sistema bilan qatorni bog'lab turadi. Xususan, hamkor, sherik, ittifoq sinonimik qatorida *hamkor* leksemasi; *ittifoq, sulh, kelishuv* ma'nodoshlik paradigmasida *ittifoq* leksemasi; *Kelishuv, shartnoma, bitim* qatorida *kelishuv* leksemasi dominanta mavqeyida kelib, o'z paradigmatic qatorlarini sistemaning lug'aviy guruhlari bilan bog'lab turuvchi vositadir. *Kelishuv* dominantasi o'z paradigmasini "ittifoq" semantik guruhiga birlashtirsa, *ittifoq* o'zi mansub qatorni "hamkor" semantik guruhiga birlashtirishga xizmat qiladi. *Hamkasaba, o'rtoqlik* dominanta leksemalari ham xuddi shunday halqa vazifasini bajaradi. Tabiat va jamiyatning o'zgarishi asosida paradigmalar tarkibi ham o'zgarib turadi. Shunga ko'ra leksemalarning ma'nodoshlik qatori ochiq hisoblanadi. Lingvistikada sinonimiya hodisasidagi mazkur holatga qator munosabatlar bildirilgan: "...sinonimlar sistemasining taraqqiyoti jarayonida ikki hodisa kuzatiladi:

1) lug'aviy ma'noli so'zning paydo bo'lishi yoki tilda mavjud bo'lgan so'zning yangi ma'no kasb etishi bilan yangi sinonimik guruh yuzaga keladi;

2) tildagi biror so'zning iste'moldan chiqishi, ko'p ma'noli so'zning biror ma'nosini yo'qotishi bilan sinonimik guruh yo'qoladi yoki sinonimik guruhning tarkibi qisqaradi" [Хожиев 2010, 130].

Mazkur hodisaning har ikkalasini ham o'zbek tili diplomatik

terminlar tizimida kuzatishimiz mumkin. Aytish joizki, diplomatiya terminlari sistemasida semantik munosabatning sinonimiya ko'rinishi alohida tabiatga ega.

### 3. O'zbek tili diplomatiya terminlari tizimida partonimiya.

Partonimik munosabat leksemalararo ma'noviy munosabatlarning bir turi. Leksemalararo partonimik munosabatning mavjudlik va amal qilish yo'llari bir necha lingvistlar tomonidan tadqiq etilgan [Берматов, Неъматов, Расулов 1989, 35-40]. Borliqdagi narsa-buyum, predmetlar butunligi va ularning tarkibiy qismlari, bo'laklari munosabati leksemalararo butun-qism munosabati asosida oydinlashtiriladi. Borliq elementlarining umumiy qurilish qonuniyati bo'laklarga ajraluvchanlik, tarkibiy murakkablik hisoblanadi va bu ong orqali lisonda aks etadi. Giperonim-giponimlar singari butun-bo'lak munosabati ham nisbiy xarakterda bo'lib, butun bo'laklarga tamoyilida bo'linaveradi.

Partonimik munosabat diplomatiya terminlari sistemasi uzvlariaro qanday maqomga ega ekanini quyida ko'rib chiqamiz. Undan avvalroq esa mazkur munosabat haqidagi fikrlarimizni to'ldirish maqsadida B.Mengliyev hamda A.Sobirovlarning qarashlarini keltirishni joiz deb bildik:

“Partonimik munosabatli semantik guruhning ham o'ziga xos xususiyatlari mavjud: 1) partonimlar ham o'ziga xos paradigma; 2) partonimik guruhda dominanta leksema mavjud bo'lib, u partonimlarni o'z atrofiga birlashtiradi. Yuqori butunlikka esa uning o'zi mansub bo'la oladi; 3) partonimik guruh ham har doim ochiqdir” [Менглиев 2005, 128].

A.Sobirov partonimik munosabat yuzasidan quyidagi fikrlarni qayd etadi: “Tilni real borliqning o'ziga xos in'ikosi ekanligini hisobga olgan holda xolo-meronimik munosabatlarning ikki turini ajratish mumkin:

a) tabiiy holdagi butun-bo'lak munosabatlari: *osmon – quyosh, oy, yulduzlar; tog' – jar, ungur, g'or, cho'qqi, so'qmoq, jilg'a; bir – yarim, chorak, nimchorak;*

b) sun'iy tarzda hosil qilingan butun-bo'lak munosabatlari. Bunga inson tomonidan yaratilgan barcha qurilmalar misol bo'la oladi. Masalan, *mashina xolonimi radiator, g'ildirak, rul, resor, akkumlyator, motor, svecha, pompa, eshik, salon, fara, nomer* kabi yuzlab meronimlardan tashkil topadi” [Собиров 2004, 144].

Diplomatiyada katta ahamiyatga ega chegara va uning qism-

larini ifodalovchi leksik birliklar bilan ularning denotatlari o'rtasida dialektik birlik kategoriyasi mavjud bo'lib, suniiy holdagi butun-bo'lak munosabati diplomatiya terminlari sistemasida o'z aksini ko'rsatgan.

Partonimik munosabatli mazkur paradigmani hudud, davlat chegaralari, ichki hudud, yaxlitlik, geosiyosat, hududdan tashqari hududiylik, xalqaro zona kabi leksemalar bilan yanada boyitish mumkin. Chunki mazkur lug'aviy birliklar moddiy asosga ega denotat va uning qismlari, bo'laklari ifodalovchisi sifatida paradigma tarkibiga bevosita kirishga haqlidir. Moddiy borliqdagi denotatlar va ular o'rtasidagi munosabatlar bilan zich bog'langanlik bunday paradigmaning tuzilish asosidir. Keltirilgan paradigmadagi *chegara*- totonim (xolonim), boshqa leksemalar esa butunning qismlari partonim (meronim) hisoblanadi. Paradigmadagi partonimlar qism, bo'lak mavqeyida bo'lganliklari tufayli ham "xalqaro munosabat semantik mikroguruhi"ga to'g'ridan-to'g'ri bog'lana olmaydi, faqat butun nom orqali diplomatiya terminlari tizimiga aloqador bo'ladi. Demak, dominantlik partonimik munosabat asosida muhim ahamiyat kasb etadi.

#### **4. O'zbek tili diplomatiya terminlari tizimida antonimiya.**

Leksemalarning antonimlashuviga olib keladigan omil sifatida sistema leksemalari sememalarining umumiy, birlashtiruvchi semalariga asosan alohida guruh tashkil qilish barobarida, ayrim belgilariga ko'ra farqlanishi, ana shu farqlilik ziddiyatning, qarama-qarshilik darajasiga chiqishi qaraladi.

Borliqdagi barcha narsa, voqeylik bir-birini taqozo etuvchi va inkor etuvchi jihatlarga ham ega bo'ladi. Mazkur jarayonlarda dialektikaning inkorni inkor va qarama-qarshiliklar birligi qonuni aks etadi. Bunday munosabat bilvosita lisonda ham aks etadi. Aytish mumkinki, leksik sath birliklari orasida bu jihat yaqqol namoyon bo'ladi.

Til birliklarining o'zaro zid munosabatdagi ma'nolari asosida guruhlanishiga antonimiya deyiladi. Bu hodisa ikkita til birligi orasidagi munosabatga ko'ra yuzaga chiqadi [Турсунов 1992, 120]. Antonimlik munosabat biri ikkinchisining aksi bo'lgan voqeylikni ifodalaydigan til birliklari o'rtasida mavjud bo'lganligi sabab har qanday leksema antonimlik munosabatiga kirishavermaydi. Antonimik munosabat asosida ma'no jihatidan qarama-qarshilik darajasiga yetgan leksemalar turishi qator olimlar tomonidan e'tirof etilgan.

Antonimiyaning semantik munosabat sifatida qaralishiga sabab unda sememalar munosabati hal qiluvchi ahamiyatga ega

bo'lganligidir.

Diplomatiya termino sistemasida *vakolatli-vakolatsiz, tartib olmoq-hadya qilmoq, taraqqiyot-inqiroz, qonuniy-noqonuniy, rioya qilmoq-rioya qilmaslik, qo'shilish-qo'shilmaslik, dushman-do'st, bo'ysinish-bo'ysinmaslik* singari leksik birliklar antonimlikni yuzaga keltirmoqda.

Yuqoridagi antonimlar sememalarining tabiatini semik tahlil metodikasi bilan o'rgansak, quyidagi ko'rinishga keladi: ideografik semalar yig'inida antonim deb belgilangan leksemalarning (sememalarning) bir semasi zid mazmunli bo'lib, boshqa sema(lar)i esa aynan bo'ladi. Masalan, *dushman-do'st* leksemalari o'zaro antonim juftlikdir. Bu leksema sememalaridagi arxisema "munosabat darajasi" bo'lsa, "salbiylik", "ijobiylik" semalari o'zaro zid belgisi bo'lib, antonimik munosabatni shakllantirmoqda. Diplomatiya nuqtai-nazardan leksemalarning ana shu umumlashtiruvchi va farqlovchi semalari asosida *dushmanlik*ni "mamlakatlar orasidagi munosabatning salbiyligi" deb, *do'stlik*ni esa "davlatlar orasidagi munosabatning ijobiyligi" deb tavsiflaymiz. Antonimlarni bitta paradigmmaga birlashtiruvchi integral semalar ham antonimlar sememasidagi differensial semalar qatorida teng qiymatga ega.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, lisoniy birliklar inson tug'ilib, voyega yetishi jarayonida shakllanib, shaxs ongida mujassamlashib boradi. Ular kishilar ongida muayyan paradigmalarni tarzida mavjud bo'ladi. Bunday paradigmalarni, ularning yashash qonuniyatlarini ochish, belgilab berish vazifalari haligacha to'liq ochilmagan bo'lib, kishi ongida yashovchi leksik birliklarning mohiyati, yuzaga kelish va amal qilish qonuniyatlarini jamiyatda mavjud yo'nalishlar, sohalar tushunchalari asosida ochib berish tadqiqotchilar oldida turgan vazifalardan hisoblanadi. Biz tadqiqotimizda inson ongida mavjud bo'lgan diplomatik tushunchalarni aks ettiruvchi leksik birliklarning paradigmatic qatorlarini belgilashga, inson ongida anglatgan mazmuniy mundarijasiga, ularning nutqiy voqelanishi hamda qo'llanishi, semantik munosabatlarini antonimik, partonimik, sinonimik, giponimik, graduonimik nuqtayi-nazardan yoritdik.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, lisoniy birliklar inson tug'ilib, voyega yetishi jarayonida shakllanib, shaxs ongida mujassamlashib boradi. Ular kishilar ongida muayyan paradigmalarni tarzida mavjud bo'ladi. Bunday paradigmalarni, ularning yashash qonuniyatlarini ochish,

belgilab berish vazifalari haligacha to'liq ochilmagan bo'lib, kishi ongida yashovchi leksik birliklarning mohiyati, yuzaga kelish va amal qilish qonuniyatlarini jamiyatda mavjud yo'nalishlar, sohalar tushunchalari asosida ochib berish tadqiqotchilar oldida turgan vazifalardan hisoblanadi.

### **Adabiyotlar**

- Бегматов, Э., Неъматов, Х., Расулов, Р. 1989. "Лексик микросистема ва унинг тадқиқ методикаси (систем лексикология тезислари)". *Ўзбек тили ва адабиёти* Тошкент.
- Раҳматуллаев, Ш. 2006. *Ҳозирги адабий ўзбек тили*. Дарслик. Тошкент: Университет.
- Собиров, А. 2004. *Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш*. Тошкент: Маънавият.
- Ҳожиёв А. 1974. *Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Расулов, Р. 1995. *Ўзбек тили систем лексикологияси асослари*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Менглиев, Б. 2004. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. Қарши.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 2007. I жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 2007. V жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати*. 2007. V жилд. Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси.
- Ҳожиёв, А. 2010. *Ўзбек тили морфологияси, морфемикаси ва сўз ясалшининг назарий масалалари*. Тошкент: Фан.
- Қиличев, Б. 1997. *Ўзбек тилида партонимия*: Филол. фанлари номз. ... дисс. Тошкент.
- Менглиев, Б. 2005. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. I қисм. Қарши.
- Турсунов У. ва бошқ. 1992. *Ҳозирги ўзбек адабий тили*. Дарслик. Тошкент: Ўзбекистон.

# Semantic relations in the system of diplomatic terms of the Uzbek language

Sanjar Mavlyanov<sup>1</sup>

## Abstract

This article discusses the semantic relations between groups and lexemes in the system of diplomatic terms of the Uzbek language in order to further complement and improve the results achieved in Uzbek linguistics. The system of diplomatic terms of the Uzbek language is also a system with its own structure and different linguistic lexemes. Determining the lexical-semantic relationship of lexemes and groups of lexemes belonging to this system helps to reveal the systemic features of the lexicon of the Uzbek language. This article describes the paradigmatic series of lexical units that reflect the existing diplomatic concepts in human mind, the content of meaning, their speech events and applications, semantic relations in antonymic, paronymic, synonymic, graduonymic terms.

